

## YOSHLARNING INTELEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Nazarov Ismoiljon Baxtiyor o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi

4-kurs

Ilmiy rahbar – f.f.n., dots. O.Muxammadiyeva

### ANNOTASIYA

Mazkur maqolada yoshlar intellektual salohiyati va uni rivojlantirish omillari ilmiy-nazariy tadqiq etilgan. Shuningdek, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar atroflicha tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar intellekti, yoshlar salohiyati, yoshlar mafkursi, yoshlar fenomeni, yoshlar rolizimi, davlatning yoshlar siyosati, intellekt, su’niy intellekt, yoshlar salohiyati.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается интеллектуальный потенциал молодежи и факторы его развития. Также были детально проанализированы приоритетные задачи, направленные на развитие интеллектуального потенциала молодежи.

**Ключевые слова:** интеллект молодежи, молодежный потенциал, молодежная идеология, молодежный феномен, молодежная политическая система, государственная молодежная политика, интеллект, искусственный интеллект, молодежный потенциал.

### ANNOTATION

This article examines the intellectual potential of young people and the factors of its development. The priority tasks aimed at developing the intellectual potential of young people were also analyzed in detail.

**Key words:** youth intelligence, youth potential, youth ideology, youth phenomenon, youth political system, state youth policy, intelligence, artificial intelligence, youth potential

XXI asr insoniyat tarixida misli ko‘rilmagan kashfiyotlar va g‘oyaviy-mafkuraviy ziddiyatlarga boy davr bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Olimlar bu davrni axborot asri, texnologiya asri deb atashmoqdalar. Darhaqiqat, XXI asr axborot va yangi texnologiyalar asri bo‘lib tarixda qolishi shubhasiz. Bugungi davrning o‘ziga xos jihatlari shundan iboratki, bu davrda insonning intellektual salohiyatini yanada yuksaltirish, rivojlantirishga ehtiyoj tobora ortib boraveradi. Chunki, mehnat bozorida endi jismoniy ishchi kuchiga emas, balki intellektual salohiyatli, malakali, professional kasb egalariga talab ortib bormoqda. Bu o‘z navbatida Yoshlar mamlakati bo‘lgan O‘zbekistonda ham sezilarli darajada ko‘zga tashlanmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar qatorida Yoshlarning intellektual salohiyati, ma‘naviy yetukligi masalasiga alohida e‘tibor qaratilganligi ham bejiz emas, albatta. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan ta‘lim-tarbiya tizimida o‘tkazilayotgan islohotlar diqqatga sazovordir. Chunki yoshlarning intellektual salohiyati bevosita maktab ta‘limidan boshlanadi va uni yuqori cho‘qqiga olib chiqish uzluksiz ta‘lim-tarbiya jarayoni orqali amalga oshadi. O‘zbekiston o‘zining yangi yuksalish bosqichiga aynan ta‘lim tizimini isloh qilish orqali erishishini davrning o‘zi taqazo etmoqda. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, Yangi O‘zbekistonda Uchinchi renessans g‘oyasini amalga oshirish jarayoni bevosita yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Prezidentimiz tashabbusi va rahnamoligida maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish, umumta‘lim maktablari faoliyatini yaxshilash, oliy ta‘lim tizimini dunyo standartlariga moslashtirish, xalqaro reytinglarga kiritish, o‘quv yurtlariga qabul qilishda adolatli tizimni o‘rnatish, mamlakatimizda nufuzli chet el universitetlarining filiallarini ochish kabi ta‘lim-tarbiya ishlari tizimli tarzda olib olib borilmoqda. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ta‘lim-tarbiya ishlarida eng asosiysi ma‘naviy-huquqiy, ijtimoiy-siyosiy asoslarning yaratilishi va mustahkamlanishidir. So‘nggi yillarda qabul qilinayotgan Qonunlar, Prezident farmonlari, qarorlari, hukumat qarorlarining aksariyati bevosita manashunga, ya‘ni yoshlarning ta‘lim-tarbiyasi, intellektual salohiyatini rivojlantirish masalasiga bag‘ishlanganligi

muammoning qanchalik dolrazbligini anglatadi. Bu borada bir qator davlat dasturlari qabul qilinmoqda. Jumladan: 2016 yil 14-sentyabrda qabul qilingan 406-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda, ularning ma‘naviy va jisimoiy tarbiyalashda muhim hujjat bo‘lib hisoblanadi. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi Qonunining 5-moddasida Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan bo‘lib, unda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ma‘naviy tarbiyasi, intellektual salohiyati, erkinliklari huquq va burchlari o‘z aksini topgan. Jumladan:

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash;

yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash;

yoshlarning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish;

yoshlar uchun ochiq va sifatli ta‘limni ta‘minlash;

yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta‘sirilar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat‘iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;

yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorism va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

iqtidorli va iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yosh oilalarni ma‘naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;

yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.



“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘rsida”gi Qonunda belgilangan yuqoridagi yo‘nalishlar yoshlarni har tomonlama barkamol avlod qilib tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Yoshlarni har tomonlama qo‘llab quvvatlashga, ularning intellektuavl salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi me‘yoriy huquqiy hujjatlar bu bilan cheklanib qolmadi. Aksincha bu kabi ishlar yanada rag‘batlantirildi va rivojlantirildi. Jumladan, O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 –iyunda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF -6017 sonli Farmoni Bundan tashqari yoshlarni bolalik davrida ham munosib shart sharoit yaaratib berish va ularning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan yana bir Ёyoori hujati “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori (№PQ-3651-son 05.04.2018)” Bundan tashqari Maktabgacha ta‘lim va tarbiya va taъlim to‘g‘risidagi yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari hamda 2021 yil 26-martda qabul qilingan maъnaviy marifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risidagi Prezident farmoni yoshlarni intellektual salohiyatini hartarafdfmf rivojlvntirish uchun zarur imkoniyatlar yaratilishi va ularning huquqiy asoslarini mustahkamlanishiga hizmat qilmoqda. Bugungi kunda yoshlar orasida keng ommalashgan besh muhim tashabus musiqa, sanat, rasomchilik teatr sport kompiuter texnadogialari va kitobhonlik tanlovlar yosh avlodni iqtidorini ro‘yobga chiqarish va rag‘batlantirishga qaratilganligi bilan axamiyatlidir. Shu o‘rinda itelektual salohiyati yuqori bo‘lgan yoshlarning yuksak natijalarini ham alohida qaytetish zarur. Misol uchun sportning inyelektual yo‘nalishi shahmat bo‘yicha Hindistonda bo‘lib o‘tgan Butun Jahon Shaxmat Olimpiadasida yosh grastmestrlarimiz O‘zbekiston tarixida ilk marotaba g‘olib bo‘lishdi. Bundan anglash mumkinki, intellektual salohiyatni qo‘lab quvvatlashga oid yaratilayotgan sharoitlar o‘z mevasini bermasdan qo‘ymaydi. So‘ngi yillarda jahaon miqiyosida o‘tkazilayotgan turli fan olimpiadalarida o‘zbek yoshlarining salmoqli natijalarga erishayotganligi kishini fahrlantirib milliy g‘urur hissini uyg‘otadi. Biroq so‘ngi paytlarda yoshlar orasida jinoyatchilik va huquq buzarlkning ko‘payatganligi yoshlarni vaqtini besamar o‘tkazayoganligi va hayotda ham o‘z o‘rnini topa olmayotganligi jamiyatimizning har bir ziyoli vakilini o‘ylantirmasdan qolmaydi. Shu maqsadad ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish nafaqat yoshlarni iqtidorini rivojga chiqaradi balki kelajak avlodni disturiktiv omillardan himoyalashga zamin yaratadi. Chunki yuksak ma‘navyatli

va intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan har bir inson eng avvalo o‘zini turli nomaqbulgarchiliklardan tiyadi. Natijada jamiyatda ijtimoiy ma’naviy muhit barqarorlik ta’minlanib ushbu muhitda yetishayotgan avlod sog‘lom dunyo qarash va kanstiruktiv fikirlashga ega bo‘lib tarbiyalanadi.

Insonlardagi shaxsiy tashabbus va hayotga bo‘lgan muhabat kabi his-tuyg‘ular natijasida inson intellekti ham rivojlana boshladi. Hozirgi zamonga kelib esa bu intellektlar shu darajaga kelganki suniy intellekt (suniy aql) darajasiga yetib bordi. Intellektual jarayonlar barcha sohani va barcha ijtimoiy qatlamdagi insonlarning hayotida ham asosiy o‘rin egalab bormoqda. Bu yoshlar ongida ham o‘zini namoyon qilib kelmoqda. Shu bilan birga yoshlarning intellektual salohiyati rivojlantirishda manaviy olamning o‘rni ham beqiyos bo‘lib bormoqda. Chunki yangi davrda yoshlar manaviy olami albatta asosiy o‘ringa chiqdi. Bunday jarayonlarni hisobga olib intellektual salohiyatli kadrlar tayorlashga qaratilgan keng ko‘lamdagi davlatimiz tomonidan qilinayotgan ishlar albatta o‘z samarasini berib kelmoqda. Yani yurtimizda amalga oshirilayotga ko‘plab ko‘rik tanlovlari, musobaqalar va ilmiy konfrensiyalar yoshlarimizning intellektual salohiyatini rivojlanishida o‘z poydevorini qo‘yib bermoqda. Shu bilan birga xalqarodarajadagi ilmiy olimpida musobaqalari yoki yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga asoslangan zamonaviy kasblar o‘rgatuvchi o‘quv –ilmiy faoliyatlari ham yoshlarimizning intellektual rivojlanishiga asosiy ustun ro‘lini o‘ynab bermoqda.

Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning g‘oyaviy omillari nimalarda ko‘rinmoqda? Yoki yoshlar intellektining o‘sib borishida mafkuraviy omillar qanday degan? asosiy savollar tug‘uladi. Yoshlar intellektini rivojlanishida g‘oyaviy omillarning tasiri kattadir. Bu borada ayniqsa moddiy yoki shaxsiy ehtiyojlar natijasida vujudga kelayotgan mativatsiyon g‘oyalarning o‘rni alohida ahamiyatga egadir. Shuningdek, yoshlarning intellektual salohiyatini yukfaltirisahda yoshlar fenomeni, yoshlar rolizimi kabi g‘oyalarning ham taʼsiri kattadir. Jamiyatni olg‘a undovchi konstruktiv g‘oyalar insonlarni maʼnaviy dunyoqarashini shakillantiradigan omillar hisoblanadi. Bu g‘oyalar yoshlar orasida individual tarzda shakillanib borayotganligi bilan birga Prezidentimiz tomonidan ham keng qo‘llab-quvvatlanvoqda. Davlatimiz rahbari, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning quydagi fikri buning yaqqol dalilidir: “... o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari!” shiori atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali va tizimli



tashkil etish”[1]. Davlatimiz rahbari va mutasaddi tashkilotlar tomonidan yoshlarning intellektual salohiyatini g‘oyaviy jihatdan rivojlanishi uchun asos bo‘lmoqda.

Yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirishning mafkuraviy omillari - bu avvalambor yoshlar ongida shakllangan konstruktiv g‘oyalar tizimidir. Inson tafakurida vujudga keladigan ilg‘or g‘oyalar unga boshqaruvchi va maqsadi sari yetaklovchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Yoshlarni tarbiyalash va ularni ilmga muhabat bilan o‘stirishda oilaviy muhit katta o‘rin egallaydi. Agarda biron bir oilada ilmga muhabat bo‘lmasa va ilm haqida tushuncha salbiy bo‘lsa o‘sha oilada katta bo‘lgan farzandlarning kelajagi yaxshi bo‘lmasligini hayotning o‘zi isbotlagan. Bizning ulug‘ va pok dinimizda ham ilm olishga davatlar ko‘pdir. Shuning uchun ota-bobolarimiz ilm haqida ijobiy fikrlar berib o‘tishganini ko‘rishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida Abdulla Avloniyning quydagi so‘zlarini tilga olsak ham bo‘ladi: “Ilm – dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko‘rsatur”. [2] Shu bilan birgalikda Abdulla Avloniy ilmini ulug‘ligiga misol qilib Payg‘ambarimizning quydagi so‘zlarini aytib o‘tadilar yani: “Payg‘ambarimiz: “Ilmga amal qilguchilardan bo‘lingiz, naql va rivoyta qilguchilardan bo‘lmangiz”, - demishlar”. [3] shu so‘zlarning o‘zi ham naqadar ilm muqaddas ekanligini ko‘rsatadi.

Misol qilib olingan barcha so‘zlar yoshlarimizning intellektual salohiyati uchun g‘oyaviy – mafkuraviy jihatdan naqadar muhim ekanligini ko‘rsatib qolmay balki, yoshlarimizning intellektual salohiyatlarini asosida nima bo‘lishi va ular intellektual rivojlanishda nimaga etibor berishlar kerak ekanligini ko‘rsatib boradi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning intellektual salohiyatining rivojlanib borishining g‘oyaviy –mafkuraviy omillari jamiyat uchun muhim bir ustun ro‘lini bajarib beradi. Chunki yoshlar kelajak degani, kelajak esa albatta salohiyatli, uddaburon va ilmiy yoshlar qo‘lida bo‘lishini anglatadi. Intellektual salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan e‘tibor sabab yuqorida keltirib o‘tilgan yuksak natijalar qayd e‘tiladi. Yoshlarning ijtimoiy faoligi huquqiy savod honligi va ma‘naviy olamining yaxshilanishi bu bevosita har qanday soha bo‘lishidan qat‘i nazar yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga tasir qiluvchi omillar bilan bog‘liqdir. Bu esa albatta yoshlar intellektual salohiyatining har tamonlama



rivojlantirish uchun asosiy sabab bo‘la oladi. Shu bilan birga esa, yoshlar intellektual salohiyatining rivojlanishi g‘oyaviy asoslari bo‘ladimi, mafkuraviy asoslari bo‘ladimi albatta bu avvalam bor insoniy rivojlanishga xizmat qilishi lozim. Barcha rivojlanishlar, taraqqiyotlarning asosi inson uchungina bo‘lsa shundagina biz haqiqiy maqsadimizga erisha olamiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. 243-bet.
2. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” “Print Line Group” T. 2023. 26-bet.
3. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” “Print Line Group” T. 2023. 27-bet.
4. Oynisa Mustafakulovna Muhammadiyeva, Asadbek Sayfullo o‘g‘li Zairov.
5. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning bugungi kundagi ahamiyati. Volume 3 / NUU Conference 2 /2022. Current Issues of Social Sciences and Humanities. <http://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-2-826-833>
6. Мухаммадиева О.М. Ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитишда Шарқ мутафаккирлари маънавий меросидан самарали фойдаланиш усуллари Ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитишда Шарқ мутафаккирлари маънавий меросидан самарали фойдаланиш усуллари. Volume 3 / NUU Conference 2 /2022. Current Issues of Social Sciences and Humanities <http://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-2-391-397>

Research Science and  
Innovation House

